



# Xalq so'zi

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 10-yanvar, № 9 (8901)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.



## O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI TARIХIDA YANGI SAHIFA

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi (XKUK) a'zosiga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda barcha sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar kasaba uyushmalariga ham katta imkoniyatlar yaratdi.

### Xushxabar



### ITUC CSI IGB

Jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining xalqaro kasaba uyushmalari harakatida tutgan o'rni va nufuzini oshirish, xalqaro kasaba uyushmalari birlashmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish yo'nalishida

aniq maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

O'tgan yilning dekabr oyida uyuhshtirilgan XKUKning navbatdagi bosh kengashi majlis qarori bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi dunyodagi eng yirik kasaba uyushmalari birlashmasi a'zoligiga 80 foizdan ko'p ovoz bilan qabul qilindi.

Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi dunyodagi eng yirik kasaba uyushmalari birlashmasi hisoblanadi. U o'z safiga 163 mamlakatdan 200 millionga yaqin a'zolarni birlashtirgan, a'zo tashkilotlar soni esa 340 ta.

XKUK 2006-yilda Xalqaro mustaqil kasaba uyushmalari konfederatsiyasi hamda Xalqaro mehnat konfederatsiyasining birlashishi hisobiga ta'sis etilgan. Ta'sis kongressi 2006-yilning 1 – 3-noyabr kunlari Vena shahrida bo'lib otdi.

Bugungi kunda tashkilotning bosh kotibi – Lyuk Triangl. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi bosh kotibi rahbarligidagi yuqori martabali missiya 2024-yilning oktabr oyida yurtimizda bo'lib, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining turli soha xodimlari ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy sheriklik va muloqotni rivojlantrish borasidagi faoliyatini bilan yaqindan tanishgan edi.

Konfederatsiya Xalqaro mehnat tashkiloti, Yevropa Ittifoqi komissiyasi, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahan

banki va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan yaqindan hamkorlik qilib keladi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Xalqaro Kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga to'laqonli a'zolikka qabul qilinishi yuqoridaq xalqaro tuzilmalarda mamlakatimiz mavqeini ilgari surishda konfederatsiya salohiyatidan foydalananish hamda Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalardagi mavqeini mustahkamash uchun qoshimcha imkoniyatlar yaratadi.

"Xalq so'zi".



Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasiga a'zo mamlakatlar xaritasi.

### TIBBIY TA'LIMGA E'TIBOR – SOG'LOM KELAJAK GAROVI

Mamlakatimizda aholi salomatligini asrash va yaxshilash imkonini beradigan sifatli "liqni saqlash tizimini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'naliши hisoblanadi. Hozirgi kunda tibbiy xizmat ko'satishda respublika, viloyat, tuman va qishloq bo'g'irlari o'rtaqsidagi bog'liqlik kuchaytirilayotir. Bunda, avvalo, mahallalarda profilaktika ishlari va tibbiy ko'rniklar sifatlari tashkii etilib, kasalliklarning oldini olish, erta tashxis qo'yish va davalash borasida sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

### Mulohaza

Shahar va qishloq oilaviy poliklinikalar, shuningdek, tez tibbiy yordam ko'rsatish yozmalarini yangi strukturansini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish yo'nalishlari takomillashtirilgan hamda aholining ushu xizmatlardan foydalananish imkoniyatlari kengaytirilgan e'tiborga molik. Aholi reproduktiv salomatligini mustahkamash, onalik va bolalikni muhofazasi qilish bo'yicha qator maqsadli milliy dasturlar amalga oshirildi. Bolalarning irtisari va tug'ma kasalliklar bilan tug'ilishi oldini olish maqsadida respublika joriy etilmoqda.

hamda hududiy skrining markazlari tashkil etidi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat xalqqa yanada yaqinlashtirilmoqda. Bilamizki, bir paytlar murakkab operatsiyalar chet elda qilardi. Bu bemoning o'ziga ham, yaqinlari uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Bugun esa Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra yurtimizga eng so'nggi tibbiy jinozlar olib kelindi, mutaxassislarining xorijda malaka oshirishi ta'minlandi. Natijada avval poytaxtdagina bajarilgan yuqori texnologik operatsiyalar, innovatsion diagnostika usullari hozir chekkaga huddularda ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

►4

### Qaror va ijro

#### INSON QADRI ULUG'LANGAN YURTDА YASHASH SHARAF

Inson hamisha mehrga tashna. Ayniqsa, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar doim mehrga mahtab bo'lishadi. Bugun yuritimidagi nogironligi bor shaxslarga har tomonlama ko'maklashilib, sog'lon mayotga moslashishi uchun barcha sharoit yaratib berilmoqda. Ular davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga olingani yuritmidagi inson qadri yuksalayotganidan dalolat.

87 yoshli Antonina Kuychiyeva Zarbdor tumanining Shodlik mahallasida yashaydi. Yaqin o'tida qarindoshlari qolmagan. Zarbdor tumanidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan Antonina Mixaylovna uy-ro'zg'or yushmanlari ko'maklashish uchun ijtimoiy xodim mas'ul qilindi.

- O'zbek xalqi mehribon va bag'rikeng. Qo'ni-qo'shnilar doimo holimdan xabar olib turadi, - deydi Antonina Kuychiyeva. - Yaqinda mahallamiz raisi ijtimoiy xodim bilan uyimiza keldi. Yashash sharoitim, sog'ligimni so'rabsurishirgach menga har kuni uch soatdan ijtimoiy xizmat ko'satishini aytishdi.

►4

### INVESTITSIYALAR –

#### IQTISODIYOT LOKOMOTIVI VA MUSTAHKAM POYDEVORI



O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va pragmatizm tufayli mamlakatimiz ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng darzlar muammolarni muhofazasi qilish, ilg'or g'oya, tashhabus hamda yondashuvlar ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi.

O'tgan yilning 2-3-may kunlari bo'lib o'tgan III Toshkent xalqaro investitsiya forumi haqida ham shunday deyish mumkin.

### Sarhisob

Odatta, xalqaro forumlar xorijiy sheriklarni birlashtirish, ularga iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantrish uchun mavjud istiqbolni ko'rsatish, turli sohalarda aniq rejalor belgilab olish maqsadida yushtiriladi. Shu ma'noda, xalqaro maydonda qarama-qarshiliklari, turli nizolar kuzatilayotgan bir davrda Toshkent xalqaro investitsiya forumi o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi. Zero, mamlakatlar, xalqlar o'tasida o'zaro muloqot uchun ko'priq vazifasini aynan iqtisodiyot o'taydi.

Yildan-yilga yaxshi an'anaga aylanib borayotgan ushbu format doirasida dunyoning barcha qit'asidan yangidan-

yangi ishonchli hamkorlar qatnashmoqda. III Toshkent xalqaro investitsiya forumiga 93 ta davlatdan ikki yarim mingdan ortiq xorijiy mehmonlar kelgani ham forumning ahamiyati tobora ortib borayotganini namoyon etadi.

Sayyoramizda tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, ilqin ofatlarining kuchayishi kabi muammolar sharoitida Toshkent forumining o'tkazilishi investorlarning tinch, xavfsiz, barqaror – Markaziy Osiyo mintaqasiga e'tiborini qaratishga undashi aniq. Zero, Yevropa

va Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar fonida jahon iqtisodiyotining o'sh sur'atlari so'nggi uch yil davomida pasayib ketdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq tendensiyalar hamut kutilgan umidlarni oqlamayishi. Rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumi hajmi ham kamaydi. Shunday sharoida 80 millionga yaqin nufusga ega bo'lgan yangi bozor investorlarga ishonch bag'ishlashi mumkin edi va shunday bo'ldi ham. Qolaversa, O'zbekistonda xalqaro sarmoyadorlar bema'lol, erkin faoliyat ko'rsatishi uchun yildan-yilga munosib sharoitlar yaratilayotganiga, imtiyoz va

kafolatlar taqdim etilayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Aslida ham, sarmoyador pul tikishidan oldin, avvalo, chama lab ko'radi. Mablag' kiritsam, foyda olamanmi? Demak, unga bashorat qilsa bo'ldigan muhit kerak, chunki bu xususiy sektor va xorijiy investorlarning hayotini yengilashtiradi. Ikkinchidan, tashqi dunyoga ochiqlik tashqaridan bilim va texnologiyalar olib uslubidir, bu xoh savdo, xoh to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali, xoh odamlar harakati natijasida bo'lsin! Uchinchi yo'nališ esa xususiylashtirish jarayonining boshlanishi. Bu sharoit va shartlarning boshlanishi.

Ayonki, 2017-yildan buyon O'zbekiston uchun muhim muvaffaqiyat omillardan biri ochiqlik bo'ldi. Ko'plab kompaniyalar o'z faoliyatini osha kezlarida boshladi, erkin savdo, valyuta ayriboshlash imkoniyatlari paydo bo'ldi va kompaniyalar bashorat qilinadigan muhitda ishlay boshladi. Mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'ldagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashlandi.

►3

O'zbekiston – kelajagi buguk davlat

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling.

### Davlat dasturi loyihasi – muhokamada

## 5 TA USTUVOR YO'NALISH BO'YICHA BELGILANCAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR

mamlakat taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi

Kuni kecha "O'zbekiston – 2030" strategiyasini Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi va uni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Nafaqat mamlakatimiz hayot uchun dolzarb, balki "yashil" rivojlanish borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilab bergan davlat dasturi loyihasida 5 ta ustuvor yo'naliş bo'yicha 2025-yil uchun amaliy chora-tadbirlar, normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati va maqsadli ko'satkichlar nazarda tilimoqda. Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiylar fraksiyalari rahbarlari ushbu dasturilamal hujjatning ahamiyati haqida munosabatlarni bildirdi.

2-sahifaga qarang. ➤

### Oliy Majlis Senatida

#### KUN TARTIBIDA – EKOLOGIYAGA OID QONUNLAR

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasini majlis bo'lib o'tdi.

Unda senatorlar, Yoshlar parlamenti va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari hamda qo'mita huzuridagi ekspert guruhiga a'zolari, vazirlik va idoralar vakillari hamda OAV xodimlari qatnashdi.

Senatorlar "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'satgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida qonunni muhokama qildi.

Qonun bilan sohada faoliyat yuritayotganlarni qo'llab-quvvatlash va ularning mehnatlarini munosib rag'batlantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'satgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish nazarda tilimoqda. Mazkur faxriy unvon mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, tabiatini asrab-avaylash, bioxilmillikni saqlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, tabiiy resurslardan oqilgona foydalishni qayta qitishlarni salmoqli natijalarga erishish fuqarolarga, mutaxassis-xodimlar va soha vakillari, ekofaollarga berilishi maqsad qilingan.

Majlida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlarini ko'satuvchi tashkilotlarning xizmatlari uchun to'lovlarni hisob-kitob qilishning ishonchiligi hamda to'g'riligi uchun javobgar bo'lishi belgilanmoqda.

Uy-joy kodeksiga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishga ko'ra, endi majburiy to'lovlar uch oydan ortiq to'lanmagan taqdirda davlat va xususiy uy-joy fondlaridagi joylarning muktdorligiga, ijara, arenaga oluvchilariga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlarini uchun majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorigi mayjud

"Xalq so'zi".

### JONLI IJRO:

#### IMKONIYAT VA RAG'BAT

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jonli ijro san'atini yanada rivojlanishiga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama markazida bo'ldi.

Majlisda senatorlar, vazirlik va idoralar mas'ullari, ekspertlar, Yoshlar parlamenti va mahalliy Kengashlarining Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari komissiyalari a'zolari ishtiroy etdi.

Mazkur qonun bilan Madaniyat vazirligining jonli ijro san'atini rivojlanishidan qattiq va suyuq asarlar ijrosida fonogrammadan foydalanan darajasi to'g'risidagi axborot umumiy reklama satining kamida o'n foizini tashkil etishi to'g'risidagi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Musiqali va boshqa asarlar ijrosida fonogrammadan foydalanan shakli va darajasini aniq belgilash, ijrochilar tomonidan fonogramma va mualiflik asarlardan foydalanan bo'yicha amaldagi qonunchilikka rivojlanishining qilish, milliy san'at va madaniyat nufuzini ko'tarishga xizmati singayotgan ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga yuzasidan chora-tadbirlarni amal



# 5 TA USTUVOR YO'NALISH BO'YICHA BELGILANGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR

**mamlakat taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga xizmat qilad**

# **YASHIL MAYDONLAR HUDUDI KENCAYTIRILADI**

Sayyora ABDIKARIMOVA,  
Oly Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va  
ekologiya qo'mitasi raisi o'rribosari:

– Dunyoda global darajada iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, tabiat sofligi eng dolzarb masalaga aylandi. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, global isish tabiiy muvozanatga va odamlar quo'yilgan. Jumladan, har yili 2 million tup daraxt ekib borish respublikada yashillik darajas 30 foizga yetkazish, ekladig har bir daraxtni parvarish qili va sug'orish tizimini yaratish; 984 ta yashil bog' barpo etis

Yurtimizda bu muammolar oldindan o'rganilib, atrof-muhitni asrash choralar ko'rileyotir. Ekoitimlarni himoya qilish va

Ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va "Yashil makon" umummilliyl loyihasining amalga oshirilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan ushbu umummilliyl loyiha chinakam xalq harakatiga aylandi. Har yili bahor va kuz faslida daraxt ko'chatlari ekish an'anasi jonlandi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish vazifasi alohida belgilab

# FUQAROLAR XOHISH-IROD RO'YORGА CHIQARUJAT

Odiljon MAMATKARIMOV,  
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar,  
xerijiy investitsiyalar va turizm macehalari qo'mitaci ra'isi siriboezu.

– Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan “O’zbekiston – 2030” strategiyasida 5 ta ustuvor yo’nalish bo'yicha 100 ta maqsadni amalga oshirish

vazifasi belgilangan.

Strategiyaning beshinchi ustuvor yo'nalishi "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishga qaratilgan bo'lub, unda yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish; Markazi Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish; an'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish kabi muhim magsadlar belgilangan.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish; xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish; tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'satish; chegaralar xavfsizligini mustahkamlash; jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy memleketalor bilan destatik alegollarini rivojlantiribeg'an.

mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar mavjud.

Strategiyaning "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish" deb nomlangan 94-maqсадини amalga oshirishda vatandoshlar tomonidan tashkil etilgan jamoat birlashmalari faoliyatini har tomonlarga rag'batlanirish va ularning sonini 200 taqob utkazish, o'tibek tilsi va adabiyati

## **SA'Y-HARAKATLAR BIRLASHTIRILADI**

Zumrad BEKATOVA,  
Oliy Majlis Senatining  
qo'mitasi a'zosi:

- Bir vaqtlar I

jihatidan dunyoda to'rt hisoblangan Orol o'z

hisoblangan Orol o'z atrofida farovon hayot sharoitini ta'minlagan jo'shqin ekotizim makoni edi. Afsuski, dengiz o'z hajmining 90 foizini yo'qtodi. Falokat aholi hayoti, sog'ligi, iqtisodiyot va hududdagi biologik xilmaxillikkaga putur yetkazdi.

Ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni birlashtirish O'zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan bo'lib, atrof-muhitni

aylangan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yildi.

Davlatimiz rahbari 2020-yil sentabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida "Orolbo'y'i mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risida"gi rezolyutsiyani ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusi bilan jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor Orol fojiasiga qaratgandi. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasining navbatdagi yalpi majlisida ushbu rezolyutsiya lovihasi ma'qullandi.

Orolbo'yı mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish masalasi "O'zbekiston – 2030"

**Joriy yilning 30-yanvar – 1-fevral kunlari Vengriyada O‘zbekiston kino haftaligini o‘tkazish ko‘zda tutilgan**

# INVESTITSIYALAR –

## IQTISODIYOT LOKOMOTIVI VA MUSTAHKAM POYDEVORI

**1** Davlatimiz rahbari xalqaro forumdagi nutqida ta'kidlaganidek, iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish asosiy maqsad etib belgilandi va natijada so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti qariyb ikki barobar o'sdi. 2024-yil yakuni bo'yicha bu o'sish kamida 6,5 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 mld. dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahan banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutining 14 mld. dollardan ortiq mablag'lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jaib qilindi. Dunyoning yetakchi kompaniyalarini hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihami shiga tushirilgan tufayli yuz minglab yangi ish o'rinnari yaratildi.

Toshkent xalqaro forumi yakunlari bo'yicha umumiy qiyimi 26,6 mld. dollar bo'lgan kelishuvlari imzolandi. Vaholanki, 2023-yilda o'tkazilgan forum doirasi jami qiyimi 11 mld. dollarlik, 2022-yilda esa 7,8 mld. dollarlik 167 hujjat imzolangan. Demak, sarmoyadorlarning mamlakatimiz va mintaqamizga bo'lgan qiziqishi yil sayin ortib borayotganini raqamlarning o'zi ko'sratib turibdi.

2024-yilda qator yirik investitsiya loyihamarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Xususan, Saudiya Arabistonining "Data Volt" kompaniyasiga "Yangi Toshkent" da 1 mld. dollarga shahar infratuzilmasini va 3 mld. dollarga "yashil" texnologiyalarga asoslangan ma'lumotlar markazi quishni rejalashtirmoqda. Saudijaning yana

bir kompaniyasi "Acwa Power" 6,2 mld. dollarga Qoraqalpog'istonda quruvvati 5 Gvt shamol elektr stansiyasi hamda quruvvati 2 Gvt bo'lgan elektr energiyasini saqlash qurilmalari barpo qiladi. Birlashgan Arab Amirliklarining "Amea Power" kompaniyasi ham Qoraqalpog'istonda quruvvati 1000 Mvt bo'lgan 1,1 mld. dollarlik shamol elektr stansiyasini quradi. Saudiya Arabistonining "Saudi Tabrid" kompaniyasi Nukus,

oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Xorijiy investorlarga mintaqaviy energetika loyihamalari ("Qambarot GES-1" va Yavon GESi qurilishi) taqdirmoti forumning muhim voqealaridan biri bo'ldi. Dunyoda investitsiyalarin jalb qilish uchun juda qattiq raqobat ketayotgan bir paytda bu ulkan muvaffaqiyatdir. Gap shundaki, xorijiy sarmoyadorlar e'tiborini jalb qilishning bir yo'lli –

**"Davlatimiz rahbari xalqaro forumdagi nutqida ta'kidlaganidek, iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish asosiy maqsad etib belgilandi va natijada so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti qariyb ikki barobar o'sdi. 2024-yil yakuni bo'yicha bu o'sish kamida 6,5 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 mld. dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi."**

Farg'ona va Quvasoy shaharlarda 750 mln. dollarga issidlilik tizimini modernizatsiya qiladi. Misrning "Nil Shugar" kompaniyasi Jizzax viloyatida qiyimi 500 mln. dollarlik qand lavlagi yetishishirish va shakar ishlab chiqarishni yo'liga qo'yadi. Bundan tashqari, forumda "Oraskom Investment" (Misr), "Bonafarm Grup" (Vengriya), "Sayar" (AQSh), "Goldvind", "Sinoma" (Xitoy), "Sam Yapi" (Turkiya), "Pasha Development" (Ozarbayjon), "Laselsberger" (Avstriya), "Petrosat Chexelcoton" (Eron) kabi kompaniyalar bilan qiyimi 6,6 mld. dollarga teng yangi investitsiya loyihamarini amalga

islohotlarni o'tkazishda jiddiy muvaffaqiyatga erishish, chunki bu mamlakat biznes va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun ochiq ekanligi haqida kuchli signal beradi.

Odatda, biznes egalari qonun ustuvor bo'lgan, sud mustaqiligi ta'minlangan yurtga umid bog'laydi. Chunki nizoli holatlarda qonun rol o'ynamaydigan davlatda yutqazib qo'yishni istamaydi. Nizolarni adolatli hal etisi maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi muvaffaqiyatli ish boshlagan. Uning tarkibida AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Xitoy, BAA kabi mamlakatlardan

90 dan ortiq nuuzli hakamlar o'rinni olgan. Ko'plab kompaniyalar xalqaro savdo bilan shug'ullanlar ekan, turli mamlakatlardan bo'lgan tadbirkor va investorlarning o'tasida kelishmochiliklar yuzaga kelish ehtiomi ortadi. Xalqaro tijorat sudlari nizolashayotgan taraflarga o'z qarashlariniadolatli hamda samarali tarzda hal qilish va tomonlar o'tasida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan o'ziga xos huquqiy tafovutlarni hisobga olgan holda, tegishli xalqaro standartlarga mos vositalarni taqdim eta olishga mo'ljallangan. Ozbekistonda xalqaro tijorat sudining tashkil qilinishini mamlakatning qonun ustuvorligiga sodiqligini namoyish etish, xalqaro savdo jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishning adolatli va samarali huquqiy tizimini ta'minlash usuli sifatida ko'rish mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonning xalqaro tijorat sudi mintaqadagi bosqha davlatlar ishtirokida nizolarni hal qilish uchun markaz vaqfisini o'tashi mumkin, bu esa mamlakatning xalqaro savdo va investitsiyalar markazi sifatidagi nuuzlini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston nafaqat markaziy mavqe'i yoki eng katta bozorga egaligi, balki eng katta ishchi kuchiga esa mamlakat sifatida ham muhim hisoblanadi. Mamlakatda malakali kadrlar va texnik imkoniyatlar mavjud. Avtomobilsozlik, oziq-ovqat yoki to'qimachilik bo'ladimi, ishlab chiqarishdami, tajriba mavjud. Bu an'ana va malakalar esa ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishda niyoyatda muhim. O'zbekistonning bu qiyosiy ustunligi mamlakatni Markaziy Osiyodagi ishlab chiqarish markaziga aylantirishi mumkin. Eng muhimi, davlatning o'zi investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini,

qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratishni, xususiy mulk daxsligini va sud tizimining mustaqilligi ta'minlanishini o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston davlat korxonalarini xususiyashtirishga astoydi kirishgan. Bu bank-moliya sohasida ham ko'zga yaqoll tashlanyapti. So'nggi yillarda ko'plab xususiy banklar ochildi. Yurtimizga Yevropaning yetakchi banklari kirib keldi. Forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekistonning yirik banklari bilan bo'lgan "Asakabank"ni xususiyashtirish bo'yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan bosqha yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiyashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

O'zbekiston sohaga xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ bosqharuv sifati osishni, yangi yetakchi bank-moliya instituti kiritishdan manfaatdor. Zero, zamminizda Mendeleev davriy sistemasiagi deyarli barcha yeti usti va yer osti boyliklari mavjud. Bu xorijiy investorni qiziqitirishi mumkin bo'lgan yana bir yo'nalish.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, investitsiyalar – bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveri. Shunday ekan, O'zbekiston bundan keyin ham jozibador investitsiyavi siyosatini davom ettiraveradi. Mamlakatimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shinchilikka asoslangan tinchliksevar siyosati ham bunga yordam beradi.

**Abduvali SOYIBNAZAROV**  
(Xalq so'zi).

## YANGILIKLAR

## xabarlar

## TAFSILOTLAR

### President stipendiantlari aniqlandi

Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hay'ati qarori bilan 2024/2025 o'quv yili uchun oly ta'lim muassasalarini magistratura bosqichining 20 nafr talabasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi tanlovi g'olib sifatida tasdiqlandi.




Vazirlilik xabariga ko'ra tanlovda ishtirok etib, sovindrond bo'lmagan talabalar ham tegishli OTM rahbari tomonidan rag'batlanтирildi.

Jumladan, ushbu tanlovnning suhbat bosqichiga tavsija etilgan, ammo sovindrond bo'lmagan talabgorlarga bazaviy stipendiya miqdorining 5 baravari, tanlovnning suhbat bosqichiga tavsija etilgan talabgorlar esa, bazaviy stipendiya miqdorining 3 baravari darajasidagi bir martalik pul mablag'i bilan mukofotlanadi.

Ma'lumot uchun, joriy o'quv yilida magistratura mutaxassisligi bo'yicha jami 124 nafr talabgor nomzodning hujjatlari taqdim etildi.

### O'zbekistonliklar intellekt darajasi reytingida yuqoriladi

Xalqaro IQ reestri dunyoning turli mamlakatlaridagi o'tacha IQ (Intelligence quotient, intellekt koefitsiyenti – inson aql darajasining miqdori) hisoblanadi.



Bu haqda "El-yurt umidi" jamg'armasi xabar berdi.

Unga ko'ra mamlakatimiz 96,98 ball bilan ro'yxatdagi 127 davlat ichida 69-o'rinni egalladi.

Dunyo bo'yicha o'tacha IQ 100 ballni tashkil qiladi.

Reyting mualliflari ta'kidlashicha, tadqiqot 2024-yilda ushbu saytda bir xil testdan o'tgan butun dunyo bo'ylab 1,4 mln. kishi ma'lumotlarga asoslangan. Ba'zi mamlakatlar ma'lumotlar yo'qligi sababli kiritilмаган.

Reyting ha yili 1-yarvani yangilandi.

Qayd etilishicha, kuchli uchlikka Xitoy (107,43), Eron (106,63) va Janubiy Koreya (106,57) kirgan. Gabon 85,56 ball bilan so'nggi or'inni egalladi.

### Fan va texnologiyalar sohasida muhim qadam

Yaqinda Xitoyning Chunsin universitetida O'zbekiston – Xitoy ilmiy-teknologik hamkorligiga bag'ishlangan simpozium o'tkazildi.

Forumda ta'kidlanganidek, mamlakatimiz Prezidentining tegishli qarori doirasida Chunsin universitetida hozirda O'zbekistonning 14 ta ilmiy muassasasi bilan hamkorlikda "Shahar zilzilabardoshliig" bo'yicha Xitoy – O'zbekiston ilmiy-teknologik hamkorlik va texnik trening loyihasi amalga oshirilmoqda.

Tadbir yurkunida yurttinzing 14 ta muassasasidan trening loyihasida ishtirok etgan 35 nafr yosh olimga sertifikatlar topshirildi va Xitoy – O'zbekiston shahar tadqiqotlari qo'shma laboratoriyasida qatnashish uchun ariza topshirgan 15 ta tashkilotga esdalik sovg'alarini taqdim qildi.

Simpozium Xitoy va O'zbekiston o'tasida fan hamda texnologiyalar, shuningdek, muhandislik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

### Tanlovga xususiy maktablar ham jaib etiladi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida "Turon maktab teatri" respublika tanlovi yangi mavsumini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.



Ta'kidlanganidek, tanlovnning joriy yilgi mavsumida ishtirokchilari ko'plab yangiliklar kutmoqda. Jumladan, tanlovnning tashkil etish davomida umumta'lim maktablaridagi "Turon maktab teatri" to'garagi a'zolari uchun o'quv qo'lllama ishlab chiqish, ishtirokchi jamaolarga 6 – 10-sinf o'quvchilarini jaib etish va 2 ta shart asosida o'tkazish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, ushbu tanlovda xususiy maktablar ishtirokini ham ta'minlash, faol qatnashish jamaolari uchun rag'batlaniruvchi nominatsiyalar joriy etish rejalashtirilmoqda.

Ma'lumot uchun, tanlovnning yangi mavsumiga 2025-yil mart oyida start beriladi.

"Xalq so'zi".

## BO'LAJAK SPORTCHILAR SALOMATLIGIGA E'TIBOR

Sport vazirligi tomonidan Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariiga tayorlash markazida sport ta'lim muassasalarini uchun ajratilgan tibbiy jihozlar va o'quv-uslubiy abadiyotlar taqdimotiga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.

### Taqdimot

Ta'kidlash joizki, sport maktablari hamda ixtisoslashtirilgan sport maktablarining tibbiyot xonalarini

etishiga ko'maklashish, ular sog'lig'ini yanada mustahkamish hamda sifatli fizioterapeutik muolajalarini o'tkazish maqsadida Sport vazirligi tomonidan olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayorlash markazlari uchun 21 turdag'i hamda sport maktablari uchun 16 turdag'i zamonaviy tibbiy jihozlari, fizioterapiya uskulari xarid qilindi.

Tadbir davomida hududiy sport-ta'lim muassasalarini mas'ullariga fizioterapeutik tibbiyot uskulalaridan o'g'ri foydalanan bo'yicha kelishishiga tegishli.

Zamonaviy tibbiyot uskululari o'rnatilishi bilan sportchilarining sifatli rehabilitatsiyadan o'tishi uchun tibbiyot markazlariga murojaat qilishiga hojat qolmaydi, sport-

ta'lim muassasasining o'zidayoq kerakli muolajalarini olish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, sport-ta'lim muassasalarini trener-o'qituvchi va o'quvchi-sportchilarining bilimini yanada oshirish maqsadida ishlab chiqilgan 172 ta nomdagi o'quv abadiyotlari ham taqdimot qilindi.

"Xalq so'zi".

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2025-yilda "Ochiq byudjet" axborot portalida o'tkaziladigan jarayonlar taqvimi taqdim etildi.

## TIBBIY TA'LIMGA E'TIBOR – SOG'LOM KELAJAK GAROVI

**1** Jumladan, Samarqand viloyatida ham sog'ligni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar izchil davom ettiliyapti. Aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, tibbiyot xodimlarning salohiyatini yuksaltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga urg'u beriliyapti.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-noyabrdagi "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirdorlik muhitini yanada rivojlanishiga hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Xususan, Samarqand davlat tibbiyot universitetida ishchi guruh tuzilib, qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlash chiqildi. Jumladan, olyigohimiz tomonidan Samarqand shahar tibbiyot birlashmasiga qarashli 1, 3 va 8-oilaviy poliklinikalar hamda Qo'shabrot tumanidagi Jo'sh oilaviy poliklinikasi, Oqchobsoy, Urgani, Chimos, Toz va Jonbulq oilaviy shifokor punktlaridan klinik baza sifatida foydalansh uchun o'zaro shartnomalar imzolandi.

Endilikda universitet talabalari amaliyot mashg'ulotlarini chekka tumanlardagi ushbubazalarda o'tkazadi. Bu talaba uchun ham, tuman va qishloq poliklinikalar shifokorlari uchun ham samaradid. Talabalarning chekka tuman va qishloq poliklinikalariga borib amaliyot o'tashi barcha hudud uchun raqobatdosh kadrlarni tayyorlashga yordam beradi. Olyigoh professor-o'qituvchilar tomonidan oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlarida kasalliklarni erta aniqlash va davolash bo'yicha mahorat saboqlari, seminarlar tashkil etiladi. Talabalar, magistrlar va klinik ordinotorlar bilan birgalikda aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini, tibbiy madaniyatni targ'ib qilish bo'yicha amaliy ishlarni olib boradi.

Universitetimiz bugungi kunda xalqaro hamkorlik borasida ham yuqori natijalarga erishmoqda.



xalqaro hamkorlik borasida ham yuqori natijalarga erishmoqda. Dunyoning eng nufuzli oly o'quv yurtlari, jumladan, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Belarus, AQSh, Germaniya, Italiya kabi davlatlarning dunyo reytingida yuqori o'rinda turuvchi tibbiyot universitetlari, klinik bazalari bilan hamkorlikni yo'lg'a qo'yanymiz. Universitet tomonidan professor-o'qituvchilarining har yili xorijda akademik mobililik doirasida malaka oshirishi tashkillashtiriladi va ular o'rgangan yangi texnologiyalar asosida viloyatimizda murakkab jarrohlik operatsiyalari o'tkaziladi.

Shahar oilaviy poliklinikalar hamda chekka tuman oilaviy shifokor punktlarining Samarqand davlat tibbiyot universitetiga klinik baza sifatida o'tkazilishi aholi uchun ham foydali bo'lismiga shubha yo'q. Qarorning yana bir bandi aynan sog'lom turmush tarzini kuchaytirish, sport tibbiyoti va reabilitatsiyani rivojlanishiga qaratilgan. Hozirgi kunda universitetimiz qoshida bir qancha ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-amaliy markazlar faoliyat olib bormoqda. Qarorda Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshidagi Sport tibbiyoti va reabilitologiya ilmiy-tadqiqot institutida 200 o'rini sog'lomlashtirish hamda davolash majmuasini barpo etish rejalashtirilgan. Ayni kunlarda bo'yicha loyihibar ishlash chiqilmogda. Majmua 2026-yil sentabr oyida foydalanshiga topshirilishi rejalashtirilgan.

Kelajakda bu majmuuda rekonstruktiv jarrohlik, og'ir

kasalliklardan keyingi reabilitatsiya terapiysi, sanatorijs-kurort davolash, balneoterapiya, manualterapiya, jismoniy tarbiya va massaj, ma'danlishtibobaxsh suv bilan davolash bo'limlari faoliyat ko'sratadi. Bu majmua Sport tibbiyoti va reabilitatsiya kafedrasi talabalarini uchun klinik-o'quv baza sifatida qo'l keladi. Sport tibbiyoti yo'nalishida kadrler tayyorlashda talabalarning amaliy mashg'ulot darslarini ham universitetda, ham sog'lomlashtirish majmuasida tashkil etish orqali dual ta'lim tizimi rivojlanitiladi.

Mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan sog'lomlashtirish majmuasida ishlovchi

Qarorda Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshida stomatologiya klinikasini tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu esa mazkur yo'nalishida malakali mutaxassislarini tayyorlaydigan va aholiga yuqori sifati stomatologik yordam ko'sratadigan o'quv, tibbiy hamda ilmiy faoliyatni birlashtira oladigan platformani yaratadi. Bu esa tish kasalliklarining oldini olish va davolash borasidagi dolzarb muammolarni hal etishga, shuningdek, amaliy tibbiyotga eng yangi texnologiyalar va usullarni joriy qilishiga hissa qo'shadigan viloyat sog'ligni saqlash tizimining muhim bo'g'ining aylanadi.

**Universitetimiz bugungi kunda xalqaro hamkorlik borasida ham yuqori natijalarga erishmoqda.**  
**Dunyoning eng nufuzli oly o'quv yurtlari, jumladan, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Belarus, AQSh, Germaniya, Italiya kabi davlatlarning dunyo reytingida yuqori o'rinda turuvchi tibbiyot universitetlari, klinik bazalari bilan hamkorlikni yo'lg'a qo'yanymiz. Universitet tomonidan professor-o'qituvchilarining har yili xorijda akademik mobililik doirasida malaka oshirishi tashkillashtiriladi va ular o'rgangan yangi texnologiyalar asosida viloyatimizda murakkab jarrohlik operatsiyalari o'tkaziladi.**

shifokorlarning malakasi, bilim va ko'nikmalari shakkantirib boriladi. Sog'lomlashtirish majmuasi zamonaviy tibbiy asbob-uskulular bilan ta'minlanib, bemorlar ilg'or texnologiyalar yordamida ko'rikdan o'tkaziladi va davolani. Sport tibbiyoti va reabilitologiya ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli majmua shifokorlari tomonidan muntazam ravishda aholi o'rtaida sog'lomlashtirishni targ'ib qiluvchi tibbiy ko'riklar tashkil etiladi.

Stomatologiya klinikasini tashkil qilish konsepsiysi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsad yurtimizda zamonaviy stomatologiyani rivojlanishiga, malakali kadrler tayyorlash sifatini yanada oshirish, amaliyotga fundamental ilm-fan yangiliklarini joriy qilishdir. Bugungi kunda Samarqand stomatologiya maktabi yaratilgan bo'lib, olyi o'quv muassasamizda stomatologiya

sohasida zamonaviy va ilg'or texnologiyalardan foydalanan, ayniqsa, og'iz bo'shlig'i va tish kasalliklarining oldini olish hamda samarali davolash borasida yaxshi natijalarga erishilmogda.

Mazkur klinikada stomatologiya va kosmetologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, davolashning innovatsion usullari va texnologiyalarini joriy etish, konferensiylar, kongresslar, seminarlar, shuningdek, tibbiyot xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun treninglar, mahorat darslarini yushtirish rejalashirilgan. Sohaning so'nggi yutuqlaridan foydalanim, raqamlar stomatologiya va lazer terapiyasi hayotga tatbiq qilish mo'ljallangan.

Shuningdek, bu yerda simulyatsiyalar markaz ham ochiladi. Ushbu markaz naqaflat labalar uchun amaliy ko'nikma bera oladi, balki shifokorlar malakasini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Klinika yuqori sifati tibbiy xizmat ko'sratish va malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur jihozlar bilan ta'minlanadi. Va u kelajakda stomatologiya yo'nalishidagi ishlarni yuqori bosqichga ko'tarish, ilg'or ish usulublari va tajribalarini ommalashtirish, zamonaviy diagnostika, profilaktika hamda davolash usullarini targ'ib qiladigan maskabga aylanadi.

Amalga oshirilayotgan bu jarayonlarning barchasi yurtimizda tibbiyot, tibbiy ta'limga berilayotgan e'tiboring naqdari yuksakligidagi, inson qadri va uning salomatligi, baxtu saodati behad aziz ko'rilayotganidan dalolat. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bajarilayotgan hamma ishlarnimizdan maqsad – xalqimizni rozi qilish, yoshlarimizni barkamol etib tarbiyalash.

**Jasur RIZAYEV,**  
**Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor.**



### Kolumbiyada erishilgan yuksak natija

Qolibbozlarimiz Kolumbiyada o'tgan sablyo bo'yicha yoshlar o'tasidagi jahon kubogi bosqichini yuqori natija bilan yakunlashdi.

Quvonarlisi, jamoaviv dasturda ham hamyurtlarimiz muvaffaqiyati ishtiroy etib, oltin medallarga egalik qildi.

Qizlarimiz finalda meksikalik tengqurlarini 45:20, yigitlarimiz esa mezbonlari 45:28 hisobida mag'lubiyatga uchratdi.

Shu tariqa yakkalik bahstar bilan hisoblaganda yurdoshlarimiz mazkur musobaqa 3 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo'liga kiritdi.



### Dzyudochilar o'zaro tajriba almashishadi

Dzyudo bo'yicha O'zbekiston termo jamoasi yilning ilk o'quv-mashg'ulot yig'indida qatnashish uchun Avstriyaga jo'hab ketdi.

Ta'kidlash joizki, Mitterzill shahrida tashkil etiladigan ushu yig'inda 50 dan ortiq mamlakatlardan tashrif buyuradigan sportchilar o'zaro tajriba almashishadi.

Rejaga ko'ra 16-yarvarga qadar davom etadigan mazkur yig'inga Diyora Keldiyorova, Muzaffarbek To'raboyev, Alisher Yusupov kabi "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari qahramonlaridan tashqari, termo jamoadan chaqiriq olgan 10 dan ziyyod yosh sportchilar madal etilgan.

### Besh o'yinda besh g'alaba

Hindistoning Lakxna shahrida gandbol bo'yicha "U-18" o'smirlar va "U-20" yoshlar jamoalari o'tasida Xalqaro gandbol federatsiyasi kubogining Osipy qit'asi bosqichi bo'lib o'tdi.



Har bir yosh toifasida O'zbekiston, Bangladesh, Qozog'iston va Hindiston davlatlarning jamoalari o'zaro bellashdi.

E'tiborli, mamlakatimiz termo jamoalari raqiblaridan ustunligini to'la isbotladi. Gандbolchilarimiz musobaqa davomida 5 tadan uchrashuv o'tkazib, barchasida g'alaba qozondi.

Shu tariqa gандbolchilarimiz Xalqaro gандbol federatsiyasi kubogining qit'alararo bosqichi yo'llanmasini naqd qilib o'qidi.

"Xalq so'zi".

## INSON QADRI ULUG'LANGAN YURTDA YASHASH SHARAF

**1** Sanatoriya salomatligimni tiklashim uchun onlayn navbatga qo'yishdi. O'zbek tilini yaxshi bilaman. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlari televizor orqali kuzatib boraman. Shukrli, Vatanimiz tinch, osoyishta, millatlararo do'stlik mustahкам. Inson qadri ulug'lanayotgan yurda yashayotganidan faxraniyatlardan.

– Yangi yildan boshlab tumanlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi faoliyatini o'lg'a qo'yildi, – deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i Nargiza Mavlanova. – Har bir mahalla ijtimoiy xodimfa etish bilan bog'liq barcha masala ular orqali hal qilinadi. Biriktilgan xodim davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar to'grisida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yicha tushuntirish beradi.

2023-yil 28-sentabrdagi "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'sratish" tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi President qaroriga asosan Jizzax viloyatida ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish maqsadida muhim vazifalar belgilab berilgandı. Baxman, G'allaorol tumanlariagi 48 ta mahallada tajriba tariqasida ijtimoiy himoyani milliy agentligining "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazini oshaydi.

– Ayni paytda G'allaorol tumanidagi 26 ta mahallada ijtimoiy xodimlar o'z faoliyatini olib bormoqda, – deydi G'allaorol tumanini "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi bosh mutaxassisasi Baxtiyor Esonov. – Ilgari fuqarolar bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam so'rab kelganda, mahalla raisi

yoxud xotin-qizlar faoli bunday xizmatni ko'sratgan. Ammo oilalarining nima sababdan moddiy yordanga muhtojligi o'rganilmagan. Ijtimoiy xodimlar har bir fuqaroning yashash sharoiti bilan yaqinidan tanishib, kompleks yordam ko'sratadi. Iloji boricha, fuqarolarni davlatga yoki mahallaga qaram, boqimanda qilib qo'ymasdan kelajakda o'zini o'zi ta'minlashga yordam beradi.

Zomin tumanidagi Nebo'sa qishlog'ida yashayochi 30 yoshi nogironligi bor Sanjar Qurbonovning nogironlik aravachasi olgani uch yil bo'lgan. Ammo o'tgan yili aravachasi sinib qoldi. Yangi arava olishga oylanishga qo'yildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sanatoriylarga yo'llanma uchun navbatga olishning yangi "IHMA Sanatoriya" moduli ishga tushirildi. Yaratilgan yangi tizim yoshi ulug' otaxon, onaxonlarni uzoq muddat navbat kutib, qancha ovoragarchiliklar bilan sanatoriylarga borishiga chek qo'ydi.

– Sanatoriylarga yo'llanma berish onlayn tizimga o'tganidan xursandmiz, – deydi "Jizzax" sanatoriysida sog'lig'i ni tiklayotgan g'allaorolli Tolibjon Qo'ychiyev. – Qishlog'izmiz viloyat markazidan 100 kilometr uzqoqlikda joylashgan. Oldinlari yo'llanma olish uchun tuman, viloyat markaziga borib, ovoray sarson bolardik. Hozir esa mushkulimiz osorlashti. Yangi tizim ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini davlat tomonidan qol'lab-quvvatlash, ularga ko'mak ko'sratishning samarali usuliga aylandi.

Rustam NURMATOV  
(Xalq so'zi).

Shu o'rinda aytish joizki, sohani raqamlashtirish hisobiga o'nidan turolmaydigan, o'zgalar ko'magiga muhtojlarga yordam ko'sratishning samarali usuliga aylandi.



O'zbekiston sun'iy intellektga tayyorlik indeksida Markaziy Osiyoda yetakchiga aylandi.

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 12 830 nusxada bosiladi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxa.

TELEFONLAR:  
Devonxon 71-259-74-51; ko'bitiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririylarga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilat javobgar.

Gazeta tahririylarga kompaniya teridi hamda operator A. Ismailov tomonidan salibalanadi.

Gazetaning poligrafik ijhatida sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islam Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.  
Musahih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 20.